

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLIGI  
MADANIYAT VАЗІRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORİYASI HUZURIDAGI  
BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLİY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov  
nomidagi Milliy estrada san'ati  
instituti rektori

A.Mansurov

2024 yil “30” aksig'iz

Ro'yxatga olindi: № MD 70211401-1.05

IMPROVİZATSIYA MAHORATI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 210 000 - San'at

Mutaxassislik: 70211401 – Vokal san'ati: estrada xonandaligi

Fan/modul kodi <b>IMM1105</b>	O'quv yili <b>2024-2025</b>	Semestr <b>1</b>	ECTS-Kreditlar <b>5</b>
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <b>4</b>
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>
	<b>Improvizatsiya mahorati</b>	<b>60</b>	<b>90</b>
<b>2.</b>	<b>I. Fanning mazmuni</b>		
<p>“Improvizatsiya mahorati” fani registratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur Malaka talablariga binoan san'at sohasida magistrlar tayyorlash o'quv rejalarasi asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalilanadi.</p> <p>Fanning maqsadi – ma'lum bir kuy yoki uning kichik parchasini erkin rivojlantirib, barcha stilistik yo'nalishlarda ijdo qilish qo'nikmalarini o'rgatish, erkin vokal improvizatsiya ko'nikmalarini egallashdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga ansambl badiiy jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida malakali sozanda-ijrochilarni tarbiyalashga o'rgatishdan iborat. “Improvizatsiya mahorati” fani bo'yicha o'qitish jarayonini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kuylarning shaklan, garmonik, stilistik tuzilishini o'rganish;</li> <li>- fortepiano jo'rligida, estrada cholg'ulari jo'rligida duet, trio, kvartet, ansambllarida xamohang ijro usullariga ko'nikma xosil qilish</li> <li>- erkin improvizatsion ijod qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;</li> <li>- berilgan kuyni sifrovka (akkordlarni xarf-raqam belgilash usuli) bo'yicha ijro qilish;</li> <li>- berilgan ma'lum bir kuyni zamonaviy estrada stillarida erkin rivojlantirib, ovoz ijrosida improvizatsiya ko'nikmalarini namoyon qilish;</li> <li>- jaz improvizatsiyasi tarixini tahlil qilib ushbu yo'nalishda ham erkin improvizatsiya ko'nikmalarini namoyon qilish.</li> </ul>			

**II. Asosiy qism (yakka mashg'ulotlari)****II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:****I-SEMESTR****Kirish**

“Improvizatsiya mahorati” fanining mazmun va mohiyati, maqsad va fazifalari.

**1-mavzu. Improvizatsiya turlari**

**Improvizatsiya fortepiano jo'rligida:** Bluz uslubidagi asar improvizatsiyasi. 16 takt davridagi improvizatsiya. Cholg'u ansambl kollektiv improvizatsianing o'ziga hosligi: Damli cholg'ular jo'rligidagi improvizatsiya. Torli cholg'ular jo'rligidagi improvizatsiya. Zarbli cholg'ular jo'rligidagi improvizatsiya. **Improvizatsiya - ijodiy jarayon:** Erkin mavzudagi improvizatsiyi. Acapella improvizatsiyasi. **Improvizatsianing turlari:** Sving uslubidagi improvizatsiya. Bi-bop uslubidagi sket improvizatsiya. Kul uslubidagi improvizatsiya. Bossa-nova uslubidagi improvizatsiya.

**2-mavzu. Yakkaxonlik improvizatsiya**

**Blyuz gammasi:** Major blyuz gammasiga asoslangan asarlar improvizatsiyasi. Minor blyuz gammasiga asoslangan asarlar improvizatsiyasi. **Improvizatsiya va kompozitsiya shakllari:** Sodda bir qisimli asarlar improvizatsiyasi. Sodda uch qisimli asarlar improvizatsiyasi. **Yakkaxonlik improvizatsiya va qo'shimcha ovozlar:** Sving uslubidagi yakkaxonlik va qo'shimcha ovozlar improvizatsiya. Bossa-nova uslubidagi yakkaxonlik va qo'shimcha ovozlar improvizatsiya. Bi-bop uslubidagi sket yakkaxonlik va qo'shimcha ovozlar improvizatsiya.

**3-mavzu. Improvizatsiya texnikasi va uslub**

**Uslub va improvizatsiya texnikasi:** Turli jaz uslublarida jaz-vokal improvizatsiya texnikalarini qo'llash: grouling, sket. **Konsert variatsiyalar:** Konsert dasturida asarni turli uslublarda variatsiya qilish. **Zamonaviy improvizatsiyadagi tonallik texnikalar:** Zamonaviy improvizatsiyada turli jaz-vokal ijrolarini tonallik texnikalarida qo'llash

#### **4-mavzu. Jaz cholg'u ansamblidagi improvizatsiya**

**Jaz cholg'u ansamblidagi improvizatsiyaning o'ziga hosligi:** Jaz-vokal ijro texnikalarini improvizatsiya orqali jaz cholg'u ansamblida qo'llash. **Cholg'u ansambli jo'rligidagi ijroda aranjirovkachi va yakkaxonning o'rni:** Jaz-vokal ijrosini cholg'u ansamblidagi ahamiyati, yakkaxon ijroning aranjirovkadagi o'rni.

#### **Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish vokal improvizatsiya jo'rligida vokal asarini to'g'ri ijro etish, vokal improvizatsiya ijro ko'nikmalarini egallah; o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat Improvizatsiya mahorati fanidan ijro dasturini topshirish.

#### **Yakka mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Ushbu fan bo'yicha o'rganilgan bilimlar yakka mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab boriladi. Xususan, har bir mavzu yuzasidan cholg'uni chalib ko'rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta'sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko'rish yaxshi natija beradi.

Talaba imkoniyatidan kelib chiqib, undan fortepiano jo'rligida oddiy mashqlarni bajarish. O'zbek xalq kuylari va mashhur estrada qushiqlaridagi kuylar asosida vokal improvizatsiya ko'nikmalarini ko'rsatish. Ijrochilik darajasini, improvizatsion ko'nikmalarini egallah uchun zamonaviy kompozitorlari va dunyo estrada-jaz yulduzлari yaratgan asarlarni tahlil qilib, ijro etish. Duet, trio, kvartet vokal ansambil shaklida asarlarni improvizatsion yo'nalishda ijro etish.

Yakka mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ijro) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi.

### **III. Mustaqil ta'limdi tashkil etishning shakl va mazmuni**

Mustaqil ta'limdi tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarni (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqr o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limdi tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

### **IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- Improvizatsiya fortepiano jo'rligida
- Cholg'u ansambl kollektiv improvizatsiyaning o'ziga hosligi
- Improvizatsiyaning turlari
- Blyuz gammasi
- Improvizatsiya va kompozitsiya shakllari
- Yakkaxonlik improvizatsiya va qo'shimcha ovozlar
- Uslub va improvizatsiya texnikasi
- Konsert variatsiyalar
- Zamonaviy improvizatsiyadagi tonallik texnikalar
- Jaz cholg'u ansamblidagi improvizatsiyaning o'ziga hosligi
- Cholg'u ansambl jo'rligidagi ijroda aranjirovkachi va yakkaxonning o'rni

	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalari)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Jaz san’atining turli uslub va yo‘nalishlari;</li> <li>– Jaz musiqasining usul, garmonik va lad asoslari;</li> <li>– improvizatsiyada musiqiy materialni rivojlanish tamoyillari va xususiyatlari;</li> <li>– asarning sifrovka (akkordlarni harf-raqam bilan belgilash yozuvi) va ovoz improvizatsiyasi;</li> <li>– xonanda ovozining badiiy va texnik imkoniyatlari;</li> <li>– improvizatsiya texnikasi va ijodiy jarayon;</li> <li>– elementar musiqa nazariyasi va jaz garmoniyasi haqida tasavvurga ega bo‘lishi;</li> <li>– jaz tarixi va uslubiy yo‘nalishlarini;</li> <li>– improvizatsiya texnologiyalari va qoidalarini;</li> <li>– jaz xonandaligini spetsifik stilistikasi va texnikasini;</li> <li>– turli jaz usullaridagi “jaz standartlarini” va ularning interpretatsiyalarini;</li> <li>– jaz, rok va pop musiqasining dunyodagi mashhur improvizator san’atkorlarini;</li> <li>– konsert dasturidagi jaz asarlari va ularning uslubiy jihatni va shaklini bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>– estrada va jaz asarlarining solo epizodlarida erkin improvizatsiyalash;</li> <li>– klassik va zamонавија jazning musiqiy tildagi ta’sirchanlik imkoniyatlarini qo‘llash;</li> <li>– estrada sahnasida ijro etish mahorati, erkin improvizatsiya ijrosi, turli xil uslub janr va shakllarga oid jaz dasturlarini ijro etish;</li> <li>– jaz asarlarini va ijro texnikasini ilmiy tahlil qilish;</li> <li>– melodik va garmonik tuzilmaning rivojida erkin improvizatsiya qilish;</li> <li>– nota adabiyotini ravon o‘qish, sifrovkalar (notaning xarfiy sistemasi) bilan ishlash va improvizatsiyalash;</li> <li>– jaz kompozitsiyasini tuzish, ta’riflash va erkin ijro etish;</li> <li>- ijrodagi vokal-texnik usullari (nola, ochirim, sket, subton, grol, filirovka, vibrato, blyuz effektlari)ni improvizatsiyada qo‘llash;</li> <li>- kasbiy faoliyatida yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;</li> </ul>
--	---

	<p>- Estrada san'at sohasidagi yangi texnologiyalar va dasturlarni qo'llash;</p> <p>- ijrochilik ko'nikma va imkoniyatlарини kengaytirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• har bir talabaga individual ravishda yondoshish;</li> <li>• yakka tarzda repetitsiyali ish;</li> <li>• konsertlarga tayyorgarlik;</li> <li>• individual loyiham;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyiham.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish vokal improvizatsiya jo'rligida vokal asarini to'g'ri ijro etish, vokal improvizatsiya ijro ko'nikmalarini egallash; o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshirqlarni bajarish, yakuniy nazorat Improvizatsiya mahorati fanidan ijro dasturini topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. D.Amanullayeva. Estrada xonandaligi. Magistratura uchun darslik. – Toshkent, 2016.</li> <li>2. D.Amanullayeva. Estrada xonandaligi. – T., «Musiqa», 2015.</li> <li>3. G'.Xoliqov. Improvizatsiya asoslari. O'quv qo'llanma. – T., 2004.</li> <li>4. N.Norxo'jayev. Improvizatsiya. O'quv qo'llanma. – T., 2005.</li> <li>5. Yu.Turayev. "XX asr o'zbek estrada qo'shiqlari", T., «Musiqa», 2016.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. K.Koller. Stanovleniye djaza. – M., 1994.</li> <li>2. D.Omonullayeva. Estrada xonandaligi. – Toshkent, 2007.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.</li> <li>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60</li> </ol>

	<p>son 28.01.2022 yil.</p> <p>5. G.Zokirova. Eng gullagan yoshlik chog‘imda. – Toshkent, 2011.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://estrada-art.uz">http://estrada-art.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.youtube.com">http://www.youtube.com</a></li> <li>3. <a href="http://library.konservatoriya.uz/">http://library.konservatoriya.uz/</a></li> <li>4. <a href="http://www.musiqa.uz">www.musiqa.uz</a></li> <li>5. <a href="http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami">http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami</a></li> </ul>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisllari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil “<u>30</u>” <u>august</u> -dagi <u>1</u> - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ul:</b> D.D.Amanullayeva – O‘zR san’at arbobi, O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti “Estrada xonandaligi” kafedrasi mudiri, professor.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b> A.Ikramov – O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, professor, B.Zokirov nomidagi O‘zbekiston milliy estrada simfonik orkestri badiiy rahbari va bosh dirijyori;  Yu.Turayev – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti “Estrada xonandaligi” kafedrasi professori.</p>